

O'ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR

VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

2023

20-Mart

ISSN: 2181-3302

SJIF:
4.621

2022 Impact Factor

Hilton

Exact

Natural

Medical




Technical

Economics

Philological

Pedagogical

Social sciences
and humanities





"O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR" JURNALI



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

MATERIALLARI TO'PLAMI

20-MART, 2023-YIL

17-SON

O'ZBEKISTON

2023





MUNDARIJA:

1.	Murodova Bibisora YOSHLARNI JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VA IJTIMOIIY FAOLLIGI	13
2.	Muhammadaminov Shermuhammad Zafarjon o'g'li. QO'QON SHAHRI.	16
3.	Mutalibov Ibrohim Qosimjon o'g'li MINERAL KUKUNDAN FOYDALANIB ASFALTBETONNING MUDDATINI UZAYTIRISH TEXNOLOGIYASI	23
4.	Мажидов С. Жўраева Ф.Д, Холиёров А.А ИККИЛАМЧИ ХОМ-АШЁ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН СУПЕРПЛАСТИФИКАТОР ҚЎШИЛГАН ЮҚОРИ МУСТАҲКАМЛИККА ЭГА ВА ЕМИРИЛИШГА БАРДОШЛИ БЕТОННИ ҚЎЛЛАШНИНГ ТЕХНИК-ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ	28
5.	Мажидов С.Р, Толипова Н.З, Омонова Д.Ф ИМПОРТ ЎРНИНИ БОСУВЧИ ЯНГИ АВЛОД СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРЛАРИ ҚЎШИЛГАН БЕТОН ТАРКИБЛАРИНИ ОПТИМИЗАЦИЯЛАШ	32
6.	Тўраева Фируза Абдурашидовна ВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ РОТОВОЙ ПОЛОСТИ У БОЛЬНЫХ С COVID-19 – СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ	37
7.	НиезАли Умаров МЕҲМОН – АТОЙИ ХУДО	42
8.	Shoxsanam Kamarova TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA YER RESURSLARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI	49
9.	Ахмедов Шавкат Курбоналиевич КОМБИНИРОВАННАЯ ТЕРАПИЯ УРОГЕНИТАЛЬНОГО КАНДИДОЗА	58
10.	Usmonova Maftuna Shuxratovna TADBIRKORLIKDA KORXONA BOSHQARUVINI RIVONLANTIRISH USULLARI	66
11.	А.О.Одилов ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРГА НИСБАТАН САЛБИЙ ТАЪСИР КУРСАТУВЧИ ИЖТИМОИЙ ИЛЛАТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНING ЎРНИ	70
12.	Shamsiya Egamberdiyeva BOLALAR FOLKLORIDA BESHIK QO'SHIQLARI POETIKASI	73
13.	Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna BÓLAJAK BOSHLAGÍCH SINF ÓQITUVCHILARINING MANTIQUIY TOPSHIRIQLARNI ÓRGATISHIDA AKTDAN FOYDALANISH	80
14.	Chokirova Khadijakhon LES DIFFERENTES METHODES APPLIQUEES A L'APPRENTISSAGE DU FLE	86
15.	Rustamova Muxlisaxon Sa'dullo qizi FRANSUZ MILLATINING O'ZIGA XOSLIGI VA MILLIY XARAKTERI	91
16.	Rahimov Zakir Azimovich Jurayeva Shalolakhon Husanboyevna FRENCH WRITER PROSPER MERIM HISTORICAL NOVEL THEME	94

**BOLALAR FOLKLORIDA BSHIK QO'SHIQLARI POETIKASI****Shamsiya Egamberdiyeva***Namangan davlat universiteti**Adabiyotshunoslik(O'DU)**yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: O'zbek xalq og'zaki ijodining sezilarli qismini bolalar folklori tashkil etadi. Bolalar tomonidan yaratilgan yoki bolalar uchun kattalar tomonidan taqdim etilgan namunalar bu chamanning chechaklaridir. Alla – onalarimizning yaratuvchanlik sifatlarini aks ettiruvchi go'zal qo'shiqdir.

Kalit so'zlar: obraz , ko'chim , epitet , metafora, istiora, monoton ohang , miliylik , qofiyalanish tartibi, radifning yagonaligi

Annotatsiya: Children's folklore is a significant part of Uzbek folklore. Specimens created by children or provided by adults for this garden. Alla-is a beautiful song that reflects the creative qualities of our mothers.

Keyword: artistic image, move, epithet, metaphor, monotonous tone, nationality, rhyming order, unity of radif.

Bola uchun onalar tomonidan uning tug'ilganidan to uch yoshiga qadar kuylangan qo'shiqlar beshik qo'shiqlari deb yuritiladi. Bu bolaning aynan mana shu davrda beshikda yotishi bilan bog'liq kelib chiqqan atamadir. Bolalar folklorida beshik qo'shiqlari tarkibiga allalar , erkalamalar , ovutmacholqlar kiradi. Alla – onalar tomonidan kuylangan ijod mahsulidir. Uning muallifi ham , bastakori ham xalq onalaridir. Bola uchun allaning so'zi emas, balki kuyi muhim . Bola shu kuy ohangida orom oladi. Alladagi monotonlik kuyning ma'lum me'yorl bola uchun uyqu chaqirish mezonl bo'ladi. Allaning so'zi ona uchun muhim . Ona o'z allasida bor quvonch va tashvishlarini , g'am – alamlari , hayotga qarashlarini ifoda etadi. Allani , garchi , bolalar folklori sifatida e'tirof etsak- da, uning so'zlariga diqqat qilsak , kattalarning dardi , hasrati namoyonligini ko'ramiz. Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg'usini ko'ngli bilan his qiladi. Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g'ururi, ayni chog'da dardi, alami, o'kinchi, orzu-armonlari ham o'z ifodasini topishi mumkin. Ma'lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi-ardoqlaydi. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne'mat – farzandi uchun Xudodan jamiki yaxshi sifatlarini so'raydi va buni allasida mujassamlashtiradi.

Bolaligimda Bo'yoqchi Makar haqidagi rus filmini sevib tomosha qilardim. Yoshligida Kashshey tomonidan o'g'irlab ketilgan shahzoda onasining allasi ta'sirida bolaligini va kim ekanligini eslaydi, xotiralari uyg'onadi. Ona allasining sehrli kuchi uni bu dunyoga qaytaradi.



Omon Matjonning "Alla haqidagi rivoyat"i undan-da ta'sirli : Uzoq yurtga turmushga chiqayotgan qiziga ona farzand ko'rsa , hech qachon alla aytmasligini, aks holda hech qachon undan rozi bo'lmasligini tayinlaydi. Qiz rozi bo'ladi va sevgan yori bilan Xorazmdan uzoqqa kelin bo'lib ketadi. Qiz u yerda juda baxtiyor va to'kin – sochin yashaydi. Vaqt o'tib farzandli bo'ladi, qiz farzandini goh otasiga, goh oyisiga, goh ukalariga mengzab katta qiladi, lekin biron marta alla aytmaydi. Nogohon farzandi kasallikka chalinib vafot etadi. Ikkinchi o'g'li ham xuddi shu taxlit miyig'ida kuladigan bo'lganda vafot etadi. Qiz uchinchi marta farzand ko'radi. Nogahon bola yana kasallanib qoladi. Xizmatkorlar eriga xotinining bolaga umuman mehri yo'qligini , hech qachon alla aytmasligini yetkizishadi. Eri qizdan bolaga alla aytishni talab qiladi. Qiz birinchi, ikkinchi , uchinchi kecha alla aytdi, bola tinchlanib tuzala boshladi.

Qiz bechoraning esa shu kechadan boshlab tinchi buziladi. Allani o'zi uchun aytganini his qiladi. Yurtini, onasini, otasini, ukalarini, dugonalarini sog'ina boshlaydi . Qalbi o'rtanib uyquni unutadi. O'g'li kata yigit bo'lganida ham o'zi uchun alla ayta boshladi. Alla aytmasa uxlay olmas edi. Xullas , qiz onasining iltimosini endi anglaganday bo'ldi, bu sog'inchning chek- chegarasi yo'q. Alla bizga onalarimizdangina meros emas, balki undan-da ulug'roq ona zaminimizdan merosdir.

Allalar ham o'zbek folklorida janr sifatida mukammal bir poetic asarlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki , allardagi obrazlar, ko'chimlar ,epitetlar(sifatlash) , badiiy tasvir vositalari xalq onalarining badiiy salohiyati hech qaysi shoirdan kam emasligini ko'rsatadi. Xalq alla aytayotganda bolaning jinsiga alohida e'tibor qaratadi. Qiz bolalar uchun alohida , o'g'il bolalar uchun alohida allalar mavjud:

Alla-yo alla,
Oppoq qizim, alla,
Qaymoq qizim, alla,
Go'zal qizim, alla,
Asal qizim, alla,
Oqcha qizim , alla,
Zoqcha qizim, alla.
Sanam qizim, alla,
Tamtam qizim, alla.
Erka qizim, alla,
Serka qizim, alla.
Chaman qizim, alla,
Saman qizim, alla.

Ko'rinib turibdiki, bu alla erkalash xususiyatiga ega. Unda strofik bo'lak -ikkilik shaklda. Xuddi masnaviyga o'xshab a-a, b-b, c-c tarzida qofiyalangan. Barcha qofiyadosh so'zlar sifatlash (epitet) vazifasini bajargani holda satr boshida qo'llangan: "qizim, alla" undalmasi esa monoton mayin ohangni ta'minlovchi tarkibli radif bo'lib, butun alla davomida ohang va kuyning yaxlitligini, yagona oqimda davom etishini ta'minlab turibdi. Sifatlovchi qofiyadosh so'zlarda onaning qizalog'iga bo'lgan



chuqur mehri xilma-xil qiyoslash va o'xshatishlarda tovlanib turadi. Shu qiyoslash va o'xshatishlarni yuzaga keltirgan narsa va hodisalarning aksariyati qay bir xususiyati bilan uxlatilayotgan qizaloq xususiyatlarini yoki qiyofasini ochishga qaratilgan qizining erka bo'lish istagi serkaning holatini esga olganda jonlilik kasb etgani singari oqcha qizining "chug'ur-chug'uri", zog'cha "chug'ur-chug'uri" ni xotirga keltiradi. Shu bahona ona qizalog'ining nafaqat tashqi sifatlarini (oppoqligi, go'zalligi, chopqirligi va h.k.), balki, ma'naviyatiga xos yumshoqlik, vazminlik va boshqa belgilarini ham poetic ta'riflab turib, shu ijodiy fazilatlarini o'z jigargo'shasida ko'rishni istaydi, shu istagini mehrga yo'g'rilgan pardalarda mayin kuylaydi. Onalar o'zlari xush yoki noxushliklaridan qat'iy nazar farzandlariga hamisha mehribonlik qila oladilar. Shundan bo'lsa kerak, ular farzandlarini erkalata turib, uyqu chaqirganlarida eng nafis ranglarni tanlashga, ularni nazokat bilan bog'liq tuyg'ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi sifatlashlarga murojaat qilishadi: shu niyatda qo'zichoq, qo'chqor, olqor, toychoq, saman, toyloq, bo'taloq, kiyik, serka, bulbul, qizil gul obrazlarida farzandlari qiyofasiga xos bir fazilatni ko'rgilari kelib, shular vositasida farzandlarini ko'rgilari kelib, shular vositasida farzandlarini e'zozlashadi.

Oq uzum , oppoq uzum , alla,

Yoshiga yetdi qizim ,alla,

Yuzlarga kirsin gul yuzim , alla,

Erkalab o'stiray o'zim , alla

Bu alla ham qizlarga atalgan allalar sirasiga kirib , uzum xalqimizda serfarzandlik ramzi hisoblanadi, oq uzumning tiniqligi, shaffofligi esa farzandning husnini nomoyon etadi. Gul yuzim deb erkalab istioraning go'zal namunasi yaratiladi.

Qizil gul tizim – tizim, alla,

Ikkiiga kirsin qizim, alla

Qoshlari qunduzgina ,alla

Muncha shirin bu qizgina , alla

Qizlar ucu atalgan allalarda gul tim soli yetakchilik qiladi. Ona qiz farzandini gulday nozik , nafis , xushbo'y bo'lishini istaydi. Qoshlarini qalin va yoyday egma bo'lishini istab qunduzga o'xshatadi. Istioraning bunday namunalari nafaqat allalarda, balki mumtoz adabiyot namunalarida ham ko'p uchraydi. Folklorshunos M. Yoqubbekova ta'kidlaganidek , gulning semantic jihatdan farzand tushunchasini anglatishida undagi go'zallik , noziklik , xushbo'ylik mutanosiblik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Muhim moslik shundaki, go'dak ham gul ham o'sish, o'zgarish , taraqqiyot va yetilish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Shuning uchun ham allalarning ko'pchiligida farzandga gulim deb murojaat qilinadi.

O'smalar sigay qoshiga, alla

Do'ppilar tikay boshiga, alla

Ipak bo'lib eshilsin , alla

Kelin bo'lib qo'shilsin, alla



Ma'lumki, qiz farzand dunyoga kelishi bilan oilada uni kelin bo'lish orzusi bilan voyaga yetkazishadi. O'zbek xonadonlarida, albatta, hovlining bir burchagiga o'sma sepushadi, ustiga –ustak bu o'smani ota eksa, yanada qoraroq kiradi, degan irim ham bor. Boshida do'ppisi bor qizlarning boshida panohi, soyaboni bor hisoblangan. Ipak esa juda mayin va kirishimligi uchun undan matolar to'qilgan. Onalar qiz farzandlarini ham ana shunday muloyim va kirishimli bo'lib, yangi honadonga birikib, el bo'lib ketishini xohlaganlar. Bu alla matnida o'zbek millatining o'ziga xosligini, qadriyat va aqidalarini, milliyligini ham ko'rish mumkin. Xuddi masnaviyga o'xshab a-a, b-b tarzida qo'fiyalangan bu allaning birinchi va ikkinchi misralari, uchinchi va to'rtinchi misralari ritmik sintaktik parallelizmi hosil qilgan.

O'g'il farzand uchun atalgan allalar esa yanada o'ziga xos. O'g'il farzand xonadon tayanchi, kelajagi hisoblangan. O'g'il bolaga jasurlik, mardlik, so'zida sobitlik, va'daga va'fo kabi fazilatlar uqtirib kelingan. Onalar ham o'g'illarini polvonim, botirim, arslonim deb erkalatganlar.

...Qo'li arslon bilakligim, alla, Botir, qoplon yurakligim, alla. Yaxshi-yomon kunimda, alla. Menga juda kerakligim, alla.

Arslon bilakli farzandi ona uchun himoya qo'rg'oni hisoblangan. Bolasini shon-shavkatda yagona bo'lishini xohlagan. Arslon bilakli, qoplon yurakli epitetlarida farzandining jasur bo'lib ulg'ayishini niyat qilgan holda, kelajakda yaxshi-yomon kunida suyanadigan farzandi borligidan faxrlangan. Misralardagi bilak, yurak - tanosibni, yaxshi – yomon so'zlari tazodni yuzaga keltirgan. Qo'fiyalanish tartibidagi a-a-b-a tartibi o'z-o'zidan ruboiy janrini yodga tushiradi, lekin ruboiyning bahri qat'iyligi bilan ular o'rtasiga masofa tushadi. Alla namunalari asosan barmoq vaznida yozilgani uchun xalq orasida tez tarqalgan va kuylash oson bo'lgan.

Sutdan oppoq, guldin islim, alla,

Bu dunyoda yo'qdir misling, alla.

O'g'illarimning sultoni, alla,

Senga tasadduq, shu jonim, alla.

Orzularim oltin toji, alla,

Mening jonim – shuning boji, alla.

Alla, bolam – bozorim, alla,

Diqqat bo'lsam, yozarim, alla.

Uxla, ko'zi xumolim, alla,

Orom ol, beozorim, alla.

Oq shohidan ro'molim, alla,

Oq yuzingni artayin, alla.

Cho'lpon ko'zingni yum qo'zim, alla,

Senga alla aytayin, alla.

Onalar alla kuylar ekanlar, farzandlari uchun dunyoning eng noyob yaratiglarini tortiq etishni istaydilar. Shu jumladan o'zlarining shirin joni evaziga bo'lsa-da, farzandlari bekam-u ko'st voyaga yetishini niyat qiladilar. Xalq orasida bolali uy bozor



deganlariday , uyi bolajonining shirin g'av'osiga to'la ekanligidan xursand, ko'ngliga tashvish tushganda shu bozor bilan ovunadi. Dunyodagi eng xushbo'y ne'mat go'dak isidir, bu is kirgan har bir xonadondan baxt ufuradi . Garchi, ozroq mubolag'a evaziga bo'lsa-da, satrlarning badiiy qimmatini ilk misralardan oshib boradi. Yuqoridagi allada ham ona farzandiga guldari islim, yani xushbo'yim, orzularimning oltin toji, bozorim, yozarim, xumorim , beozorim, qo'zim deb murojaat qiladi. Nido san'ati ana shunday undalmalar vositasida amalga oshadi.

Buvi va momalarning tilidan aytilgan allalar ham o'zining badiiy bo'yodori alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolaginam bolasi, alla, Qantak o'rik donasi, alla.

Qantadan ham shirin ekan alla, Bolaginamning bolasi, alla. Bog'da uzumning g'o'rasi, alla, Tog'da kiyikning bolasi, alla. Do'ppisida ukkipari, alla, Bu kimning nevarasi, alla.

Elimiz orasida yuradigan qadrdon satrlar bor: "O'rigidan danagi shirin". Qantak o'rik- farzand , nabira- danak tashbehidir .Nabiraning qimmatini buvi bo'lganlar biladi. Qaynona bo'lgan ayol borki, buvi bo'lishni intiqib kutadi. Qantak o'rikning donasi , uzumning g'o'rasi , kiyikning bolasi- istoraviy ko'chimning yorqin namunasi bo'lib, nabirasini uzumning g'orasiga mengzashida ham dono buvijonlarning bir qancha falsafasi bor. Uzun serfarzandlik ramzi bo'lib , yana ko'pgina nabiralar umidi hisoblansa, uning g'oraligi bolaning hali yoshligi , tajriba hosil qilib bir kun shirin meva bo'lib yetishiga ishonch bor. Tog' yuksaklik, kiyik bolasi navqironlik , go'zallik timsolidir. Momalarimiz nabirasining boshi tik bo'lishini istab , do'ppisiga ukkipar qadashadi va misralar so'ngida nevaralarining tengsizligidan maqtanib ham qo'yishadi.

Olmalardan beshigi, alla Olib qo'ysin otasi, alla. Behilardan beshigi, alla. Belab qo'ysinbuvisi, alla.

Allalari yodimda, alla Belanchagi yonimda, alla, Momosi alla aytar, alla
Nevarasin otindan alla.

O'zbek xalqi go'dakni beshikda kata qilishga alohida ahamiyat beradi. Har bitta xonadonda, albatta, bitta beshik saqlanadi. Beshik sotib olinayotganda uning nimadan yasalganiga katta e'tibor berishgan. Olma , behidan yasalgan beshiklar xaridorgir qaratishgan. Shu bilan birgalikda birinchi va ikkinchi misralarda Unli tovushlar assonansi (olma-olib-otasi) ohang birligini tashkil qilgan bo'lsa, uchinchi va to'rtinchi misralarda undosh tovushlar alliteratsiyasini ko'rish mumkin(behi-belab-buvisi).
Bu kabi tovushlar takrori bilan bog'liq hodisalar boshqa alla namunalarida ham ko'plab uchraydi.

O'rik yog'och beshiging, alla
O'rgilib ketsin onang, alla
Tut yog'ochdan beshiging, alla
Termulib o'ysin onang, alla



O'rikdan qilingan beshiklar o'zining mustahkamligi bilan ajralib turgan. Tut – qut-baraka timsoli hisoblangan, shu bilan birgalikda unga qurt tushmagan. Shuning uchun beshik yasovchi ustalar tutdan qilingan beshiklarni ko'proq tavsiya etishgan.

Ko'pgina alla namunalarida tarse' san'atiga duch kelamiz, bu allada ham 1 va 3 misralar, 2 va 4 misralardagi so'zlarning o'zaro ichki qofiyadoshliligiga ko'rishimiz mumkin. O'rik-o'rgilib, tut-termulib so'zlari ohangdorligi bilan alliteratsiyani yuzaga keltirgan.

Chimchilab qo'ygan burningdan, alla

Chimqo'rg'onliklar aylansin, alla

Angishvonadek og'zingdan, alla

Aravoniklar aylansin, alla

Qo'lvog'ingning qatidan, alla

Qo'ng'iro't ellari aylansin, alla

To'shagingning taxidan, alla

Turkman ellari aylansin, alla

Beshigingning bandidan, alla

Bag'dod ellari aylansin, alla

Toponimlarni o'rinli qo'llagan holda alliteratsiyasining go'zal namunasi yaratilgan bu allada ham bir qancha badiiy tasvir vositalarini ko'rish mumkin.. O'zaro bir – biriga alogador so'zlarni qo'llab tanosib san'ati yaratiladi. Burun, og'iz inson tana a'zolari hisoblansa, qo'lvog', to'shak, bandi beshik sarpolarining uzviari hisoblanadi. Go'dak og'zining angishvonaga o'xshatilishi bilan tashbeh yaratilgan bo'lsa, beshinchi misradan boshlab, ritmik sintaktik parallelizmi ko'rishimiz mumkin. Momolarimiz allalarni beshik tebratib o'tirib aytganlar, chunki kelinlar bolani beshikka belab o'zlari uy yumushlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Bola boqish buvijonlarning ermagi bo'lgan. Tog'ay Murodning "Oydingda yurgan odamlar" asarida qo'shni kelinning Momogiz kampirga bolasini berib o'zi uy yumushlariga tutinganini eslaylik.

"Momogiz ko'zlarini yumib dimog'ida beixtiyor alla aytdi:

Sen suyuqli erkatoyim

Sho'x qo'zichog'im, alla

Alla ohangida Sherabod dashtlarida anqillab yotgan ko'ngil nolasi bor. Dardi armoni fojeasi bor.

Suyub-suyub o'pay seni

Shirin do'mbo'gim, alla

Ay..."

Shu alladan keyin Momogiz kampirning ko'kraklari sutga to'lmaydimi? Shundan keyin Momogiz kampir onalik hissinu tuymaydimi? Allaning sehriga yana qanday isbot kerak. Alla bu yer yuzidagi jamiki millatlarning umumiy qo'shigi. Tiriklik qo'shigi. Yerdan hayot davom etayotganligining darakchisi. Tom ma'noda hayot qo'shigi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1) O. Safarov. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent – 2007. 17 – bet
- 2) O'zbek folklori. 1-kitob. Toshkent, 1939
- 3) Gulyor. Farg'ona qo'shiqlari. Toshkent, 1967
- 4) Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent, 1975
- 5) M. Jo'rayev. "Oy oldida bir yulduz"
- 6) Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982.
- 7) Eng sara allalar . Toshkent, 2017
- 8) S.R. Mirzayeva . " Alpomishga alla aytgan momolarim" Andijon, 2012
- 9) M.Yo'ldoshev. Badiiy matnning isoniy tahlili .Toshkent, 2008
- 10) Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarida gul tim soli// Til va adabiyot ta'limi.-Toshkent, 2003.-N4

ISSN: 2181-3302 SJIF(2022): 4.621

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

BOLALAR FOLKLORIDA BESHIK QO'SHIQLARI
POETIKASI

NOMLI MAQOLASI UCHUN:

Shamsiya Egamberdiyeva

SERTIFIKAT

BIAN TAQDIRLANADI



[Signature]

BOSH MUHARRIR:
U.MAQSUBOV




zenodo




WORLD JOURNALS

Scientific Research



INFOBASE INDEX



DRJI

www.bestpublication.org info.bestpublication@mail.ru